

NOTARIAL FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH TARTIB- TAOMILLARI

Maxkamov Eldor

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi yo'nalishi magistratura talabasi

E-mail: eldor4828@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798390>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida notariat institutini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar yoritilgan. Jumladan, notariat tizimining raqamlashtirilishi, xizmatlarning soddalashtirilgan tartibda ko'rsatilishi va xususiy notariat institutining joriy etilishi orqali fuqarolarga ko'rsatilayotgan huquqiy xizmatlar sifatining oshirilishi tahlil qilingan. Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan notariuslar faoliyatini nazorat qilish tartibi, jumladan, rejalashtirilgan, qisqa muddatli va kameral tekshiruvlarning mazmun-mohiyati bayon etilgan. Maqolada avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ahamiyati va kelajakda sun'iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi orqali nazoratning samaradorligi va shaffofligini oshirish imkoniyatlari haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: notarius, adliya, notariat xizmatlari, nazorat qilish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar avvalo, inson manfaatlarini himoya qilish borasidagi amaldagi qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan. 2022–2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Mazkur yo'nalishda notariat institutiga oid barcha qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va yagona qonunga birlashtirish, notariat faoliyatini yanada raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, hamda FHDYO va notariat organlari tomonidan davlat xizmatlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rsatishni yo'lga qo'yish asosiy maqsadlar etib belgilangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda notariat institutining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda notarial idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatish sifati darajasini oshirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5816-son Farmoniga muvofiq xususiy notariuslar instituti joriy etildi. Bu islohot notariat xizmatlarining kengayishiga, raqobat muhitining rivojlanishiga va pirovardida xizmat sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Notarial faoliyat – fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini qonuniy asosda himoya qilishga xizmat qiluvchi, huquqiy munosabatlarda barqarorlik va ishonchlilikni ta'minlovchi muhim huquqiy institutdir. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida notariat institutining faoliyatini samarali tashkil etish va uni davlat tomonidan nazorat qilish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu nazorat notariuslar faoliyatining qonuniyligini, odillik va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Nazorat qilish notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, notariuslar tomonidan

litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

“Notariat to'g'risida”gi Qonunning 22⁸-moddasiga muvofiq qonun hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya qilishi ustidan nazoratni Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari amalga oshiradi. Ushbu davlat organlari notarial faoliyatning qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha vakolatli hisoblanadi. Notarial palata xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyati ustidan monitoringni amalga oshiradi[1].

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan[2]. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan davlat notarial idoralari notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibini belgilaydi. Bu tartib notariat sohasida shaffoflikni oshirish, suiiste'molliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Notariuslarning notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etishi ustidan nazorat qilish notariuslarni rejali tekshirish, qisqa muddatli tekshirish va kameral tekshirish orqali amalga oshiriladi. Rejali tekshirish adliya organi tomonidan tasdiqlangan yillik (choraklik) ish rejasiga kiritilgan va har uch yilda bir marta o'tkaziladigan nazorat shakli hisoblanasa, qisqa muddatli tekshirishda notariuslar faoliyati adliya organi tomonidan reyd, “sirli mijoz” hamda xizmat tekshiruvi tarzida amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, “sirli mijoz” kabi usullar nazoratning obyektivligini oshirib, fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi usullar, ayniqsa, subyektiv omillarga bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalarida nazorat qilish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kameral tekshirish esa adliya organi tomonidan o'zi joylashgan manzil bo'yicha notariuslarning notarial harakatlarni rasmiylashtirishda qonunchilikka rioya etilishini “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi ma'lumotlar hamda adliya organida mavjud bo'lgan notarius faoliyatiga oid boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda aytish kerakki, avtomatlashtirilgan tizimlarning nazoratning shaffofligini oshirishi, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishi va ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berishi davlatning nazorat qilish funksiyasini amalga oshirish jarayonini yanada samarali va obyektiv qilishga yordam beradi.

Nazorat tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda topshiriqlari, adliya organlari yillik (choraklik) ish rejalari, notariusdan olingan ma'lumotlar tahlili, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, tizimdagi ma'lumotlar tahlili, ommaviy axborot vositalarida berilgan yoki Internet jahon axborot tarmog'ida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan (kelib tushgan) qonunbuzilish holatlari haqida axborot beruvchi xabarlar va

ma'lumotlar va boshqa tashkilotlardan olingan ma'lumotlar asos bo'ladi. Bu holat nazorat tizimining ko'p qirrali, xilma-xil ma'lumot manbalariga asoslanganligini va tizimli yondashuvni aks ettiradi.

Notarial faoliyatning davlat tomonidan nazorat qilinishi – huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek, huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada mavjud huquqiy baza va amaliy mexanizmlar doimiy takomillashib bormoqda. Biroq, raqamlashtirish, shaffoflik va samaradorlikni yanada oshirish uchun tizimli islohotlarni davom ettirish zarur. Kelajakda notariat sohasida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirishi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi va notarial harakatlarning qonuniyligini deyarli to'liq kafolatlashi mumkin. Jumladan, blokcheyn texnologiyasi notarial yozuvlarning o'zgarmasligini va shaffofligini ta'minlab, nazoratni yanada samaraliroq qilishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar notarial harakatlarni avtomatik ravishda tahlil qilib, potentsial qonunbuzarliklar yoki xatoliklarni tezda aniqlashga yordam berishi mumkin. Bu esa notariat institutining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashga, uning huquqiy ishonch va xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini oshirishga xizmat qiladi. Notariatning kelajagi raqamli innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon davlat nazorati bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi muhimdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Notariat to'g'risida”gi qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son
2. Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizom // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2025-y., 09/25/135/0208-son